



Nilufar MUXIDDINOVA

Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: nilufarmuhiddinova405@gmail.com

Profi university Navoiy filiali dots., p.f.n F.Aminova taqrizi asosida

THE EFFECTIVENESS OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN DEVELOPING THE PRACTICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the effectiveness of using Bloom's taxonomy in the development of practical competence of future teachers in the credit-modular system. In the study, practical competence is substantiated as an integrative indicator that determines the professional training of a teacher, its structural components, development mechanisms, and pedagogical conditions are highlighted. The need to integrate the cognitive stages of Bloom's taxonomy in determining learning outcomes in accordance with the requirements of the credit-module system and the European Credit Transfer System (ECTS) has been substantiated.

Key words: Credit-module system, practical competence, future teacher, Bloom's taxonomy, pedagogical model, competency-based approach, learning outcomes, reflexive assessment, motivational competence, pedagogical modeling.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

В данной статье научно-теоретически проанализирована эффективность использования таксономии Блума в развитии практической компетентности будущих учителей в условиях кредитно-модульной системы. В исследовании практическая компетентность обоснована как интегративный показатель, определяющий профессиональную подготовку учителя, освещены ее структурные компоненты, механизмы развития и педагогические условия. Обоснована необходимость интеграции когнитивных этапов таксономии Блума при определении результатов обучения в соответствии с требованиями кредитно-модульной системы и Европейской кредитно-трансфертной системы (ECTS).

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, практическая компетентность, будущий учитель, таксономия Блума, педагогическая модель, компетентностный подход, результаты обучения, рефлексивная оценка, мотивационная компетентность, педагогическое моделирование.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda amaliy kompetentlik o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi integrativ ko‘rsatkich sifatida asoslanib, uning tarkibiy komponentlari, rivojlanish mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Kredit-modul tizimi va Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS) talablariga muvofiq holda o‘quv natijalarini belgilashda Blum taksonomiyasining kognitiv bosqichlarini integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kredit-modul tizimi, amaliy kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, Blum taksonomiyasi, pedagogik model, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quv natijalari, refleksiv baholash, motivatsion kompetensiya, pedagogik modellashirish.

Kirish. So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida joriy etilayotgan kredit-modul tizimi ta‘lim jarayonini natijalarga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, o‘quv faoliyatining shaffofligini ta‘minlash va ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va amaliy kompetentligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonida ta‘lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish hamda pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan [1].

Mazkur jarayonda amaliy kompetentlikni tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar va samarali metodik vositalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri Blum taksonomiyasi bo‘lib, u o‘quv maqsadlarini kognitiv darajalar asosida aniqlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirish

hamda ta‘lim natijalarini baholashda muhim nazariy-amaliy asos vazifasini bajaradi. Blum taksonomiyasi o‘quv jarayonini faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qolmay, balki talabalarda tahliliy, ijodiy va refleksiv fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va ta‘lim nazariyasida dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan ta‘lim, natijaga asoslangan o‘qitish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar doirasida tadqiq etilgan.

I.A. Zimnyaya amaliy kompetentlikni bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda tatbiq etishga tayyorlikni aks ettiruvchi integrativ ko‘rsatkich sifatida izohlaydi. A.V. Xutorskoy esa kompetentlikni faoliyatga yo‘naltirilgan shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida baholab, amaliy tajriba va mustaqil faoliyatning ustuvorligini ta‘kidlaydi. Ushbu

yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda ta'lim va o'rganish strategiyalarining ahamiyati P. Bimmel, N. Rampillon, F. Mayer, E. Weinstein va A. Wenden tadqiqotlarida kognitiv yondashuv asosida tahlil qilingan. A. Wenden ta'lim strategiyalarini o'quv axborotini izlash, qayta ishlash va qo'llash bilan bog'liq aqliy harakatlar tizimi sifatida talqin etadi, bu esa bo'lajak o'qituvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim maqsadlarini belgilash va o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishda Blum taksonomiyasi muhim nazariy-amaliy asos hisoblanadi. B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik L. Anderson hamda D. Kratvol tomonidan takomillashtirilgan ushbu taksonomiya o'quv natijalarini aniq belgilash, faoliyatni rejalashtirish va baholash mezonlarini ishlab chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion omillarning ahamiyati A.N. Leontev, D. Makklelland, E. Desi va R. Ryan tadqiqotlarida asoslangan bo'lib, ichki motivatsiya va refleksiv faoliyat kasbiy kompetentlikning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bolonya jarayoni va EHEA talablariga asoslangan kredit-modul tizimi ta'limni natijaga yo'naltirib, talabalarning tanlov imkoniyatini kengaytiradi hamda shaffoflik va sifatni ta'minlaydi. ECTS orqali fanlar aniq o'quv natijalariga ega modularga bo'linib, nazariy bilim bilan birga amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizim bo'lajak o'qituvchilarni mehnat bozori talablariga mos, innovatsiyalarni tez o'zlashtira oladigan va amaliyotda samarali faoliyat yuritishga oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, kasbiy standartlarni puxta egallash va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu muammoni hal qilish uchun 2013-yilda E. A. Yamburg tomonidan birinchi bo'lib zamonaviy o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan standart fazilatlar hamda ilmiy asoslangan professional standart ishlab chiqildi. Ushbu loyiha muallifining fikriga ko'ra, o'qituvchining kasbiy standarti quyidagi muhim vazifalarni bajarishi kerak:

o'zgaruvchan dunyoda ta'lim strategiyasini amalga oshirish vositasi bo'lishi;

ta'lim sifatini oshirish va mahalliy ta'limni xalqaro darajaga olib chiqish vositasi bo'lishi;

o'qituvchi malakasining ob'ektiv o'lchovi bo'lishi;

ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tanlash vositasi bo'lib xizmat qilishi;

xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mehnat shartnomasini tuzish uchun asos bo'lishi2[c.175].

Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy standartlar va me'yorlarni to'liq o'zlashtirishlari talabini keltirib chiqaradi. Bu esa, "Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari"ni amalga oshirishning strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

O'qituvchi insonparvarlik pedagogikasida ta'lim strategiyasi muallifi hisoblanadi. Bu mualliflik o'z-o'zidan emas, balki ko'proq uning ixtirochilik qilishdan ko'ra oqilona tanlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday mahoratni egallash uchun u insonparvar o'qituvchi sifatida nimani tanlashi mumkinligi haqida katta hajmdagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim. Tanlov mexanik nuxsaga aylanmasligi uchun pedagogikada to'plangan tajribani ijodiy idrok etish, so'rov o'tkazish, qayta ko'rib chiqish, "o'zini sinab ko'rish", "vaziyatga, talablarga, o'qituvchining o'quv

materiali, xulq-atvor hodisasi bilan munosabatlarning shaxsiy taktikasi asos sifatida qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi kerak"³ [; 256-b.].

Pedagogik strategiya – pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlarini istiqbolli nazariy rivojlantirishning eng yuqori darajasi. U uslubiy xarakterdagi kasbiy mahorat asosida, xususan, hodisa mohiyati, uning haqiqiy ma'nosi, aniq va yashirin sabablarini tushunish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish, tamoyillar asosida ta'lim-tarbiya maqsadlarini belgilash, pedagogik o'zaro ta'sir shartlari va vositalarini tanlash tarzida amalga oshiriladi.

Amaliy kompetentlik - bu bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarni aniq pedagogik vaziyatlarda mazmunli qo'llay olish, amaliy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish va ta'lim-tarbiya jarayonida samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir. U integrativ shaxsiy sifat bo'lib, professional pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi muhim kompetensiya turlaridan biri hisoblanadi.

Zimnyaya I.A. ta'rificha, "Amaliy kompetentlik – bu shaxsning bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi integrativ xususiyatdir"⁴ [c.40]

Bugungi kunda, kredit-modul tizimida amaliy kompetentlikni rivojlantirishda Blum taksonomiyaning qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega, chunki u o'quv jarayonining maqsadli yo'nalishini ta'minlaydi va talabalarda yuqori darajadagi kognitiv va amaliy faoliyatni rivojlantirishda bo'lajak pedagoglar uchun o'quv natijalarini aniq belgilash, kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va baholash mezonlarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) – pedagogik maqsadlarni tizimlashtirish va ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma hamda kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan nazariy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. U 1956 yilda Benjamin Blum rahbarligida ishlab chiqilgan bo'lib, asosan ta'lim maqsadlarini aniqlash, tuzilmaviy modellashtirish va o'quv jarayonida erishilishi lozim bo'lgan natijalarni baholash uchun xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi – o'quv jarayonini faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklab qo'ymasdan, balki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini, tahlil qilish, sintez va baholash kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishdir5(Krathwohl, 2002)[4]. Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlari kognitiv domenda olti bosqichga ajratilgan:

Bilish (Knowledge) – faktlar va ma'lumotlarni eslab qolish;

Tushunish (Comprehension) – ma'lumotlarni anglash va ifoda etish;

Qo'llash (Application) – bilimlarni amalda qo'llash;

Tahlil (Analysis) – ma'lumotlarni qismlarga ajratish va mantiqiy munosabatlarni topish;

Sintez (Synthesis) – yangi g'oyalar yaratish, integratsiya va ijodiy yechim topish;

Baholash (Evaluation) – asosli xulosa chiqarish va tanqidiy fikrlash.

Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy kompetentligini rivojlantirishda Blum taksonomiyasi asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

Maqsad belgilash: har bir o'quv moduli taksonomiya bosqichlari asosida yo'naltiriladi. Faoliyat rejasi: nazariy bilim – amaliyot – tahlil – innovatsion yechimlar zanjiriga asoslanadi. Baholash tizimi: amaliy topshiriqlar taksonomiya bosqichlariga muvofiq baholanadi.

Tadqiqotchi olimlar L. Anderson va D. Kratvol tomonidan 2001 yilda taksonomiya qayta ko'rib chiqildi va kognitiv bosqichlar faoliyat fe'llari asosida Bilish → Tushunish → Qo'llash → Tahlil → Sintez (Yaratish) → Baholash tartibida ifoda etildi (Krathwohl, 2002)6[4]. Bu

yangilangan model ta'lim jarayonida talabani faqat yod olish emas, balki yaratish va ijodkorlikka qaratilgan faoliyatlarini ham rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kredit-modul tizimi talabalarda amaliy kompetentlikni rivojlantirish uchun Blum taksonomiyasi bosqichlarini integratsiyalashni talab qiladi. Demak, kredit-modul tizimi va Blum taksonomiyasi integratsiyasi bo'lajak pedagoglarda amaliy kompetentlikni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi, ularni zamonaviy ta'lim talablariga muvofiqlashtiradi. Bu maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri pedagogik modellashtirishdir.

Pedagogik modellashtirish – bu zamonaviy pedagogik amaliyotning ma'lum bir vazifalarini samarali hal qilishga qaratilgan vositani yaratish jarayonidir. U o'qituvchining faoliyati mahsuloti sifatida yuzaga keladi va o'quv jarayonini tizimli ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi⁸. Keng ma'noda pedagogik vosita – bu ta'lim jarayonini sifatini oshirish va talabani shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan vositadir. Bunday vosita quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: ta'lim xizmatlari va pedagogik qo'llab-quvvatlash sifatini oshirish – talabalar uchun taqdim etilayotgan pedagogik yondashuvlar samaradorligini oshirish; ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni takomillashtirish – talaba va ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

Talabani rivojlanishi va o'qituvchining faoliyatini optimallashtirish – pedagogik vosita o'quv jarayonining sifatini muntazam oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagogik modellashtirish nafaqat nazariy yondashuvlarni, balki amaliy faoliyat vositalarini yaratish va takomillashtirish jarayoni bo'lib, u orqali o'qituvchi ta'lim oluvchining shaxsiy va intellektual rivojlanishiga samarali hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik jarayonda amaliy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion-kompetensial komponent muhim o'rin tutadi. Bu maqsadning ilmiy asoslari ko'plab pedagogik va psixologik nazariyalarda yoritilgan. Xususan, A.N. Leontevning faoliyat nazariyasida motivatsiyaning faoliyat jarayonidagi hal qiluvchi ahamiyati ta'kidlanadi⁷. D. Makklellandning ehtiyojlar nazariyasida esa muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji shaxsning faoliyatini kuchaytiradi, degan qarash ilgari suriladi¹⁰. Shuningdek, E. Desi va R. Rayanning Self-Determination Theory nazariyasida ichki motivatsiyaning yuqori bo'lishi bilim va kompetensiyalarni samarali rivojlantirishning asosiy sharti ekani ko'rsatiladi¹³. Kompetentlikka asoslangan yondashuvda esa (J. Raven ta'rifida) bilim, ko'nikma va munosabatlar motivatsiya bilan uyg'unlashganda shaxsning samarali faoliyati ta'minlanishi ta'kidlangan¹⁴.

Modelda "motivational competence (motivatsion kompetensiya)" ta'lim jarayonida mas'uliyat, insoniy qadriyat va fazilatlariga asoslangan holda talabalar motivatsiyasini

shakllantirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Unda kommunikativ yondashuv va tanqidiy fikrlash kabi muhim funksional mexanizmlar ajratib o'tilgan. Bu model pedagoglar uchun motivatsion kompetensiya vositasida o'quv jarayonini takomillashtirish uchun muhim yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Motivatsion-kompetensial komponentning vazifalari ham shu ilmiy asoslardan kelib chiqadi. Birinchidan, talabalarda kasbiy qiziqish uyg'otish va pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglatish zarur. Ikkinchidan, shaxsiy motivatsiyani kuchaytirish uchun bilim olish jarayonida talabalar maqsad va ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Uchinchidan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash orqali amaliy kompetentlikka yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalarda refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish orqali motivatsiyaning uzluksizligini ta'minlash ham vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki u barcha keyingi komponentlarning samaradorligi uchun psixologik va pedagogik zamin yaratadi. Maqsadli komponentda belgilangan maqsadlarni qabul qilishda motivatsiya asosiy omil hisoblanadi. Faoliyat-kommunikativ komponentda talabalar faol ishtirokini ta'minlashda ham motivatsiya yetakchi o'rin egallaydi. Refleksiv-baxolash jarayonida esa motivatsiya o'z-o'zini tahlil qilish va rivojlanishga turtki beradi.

Amalga oshirishda esa turli metod va texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, SMART maqsad qo'yish usuli, geymifikatsiya elementlari (ball tizimi, reyting, o'yin elementlari), interfaol metodlar (keyc-metod, "Role play", "Breynstorming"), hamda refleksiv vositalar (esse yozish, SWOT-tahlil) ushbu komponentning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, talabalarda ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun "Mind map", "Fishbone" diagrammasi, guruhli proektlar va debatlar kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Demak, kredit-modul tizimi sharoitida Blum taksonomiyasiga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish jarayoni nazariy bilimlarni real pedagogik amaliyotga samarali tatbiq etishga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda refleksiv yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy qarorlar qabul qilish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi integrallashgan shaxsiy imkoniyatlar tizimini shakllantiradi. Natijada, nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligi ta'minlanib, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va barqaror rivojlantirish uchun puxta metodik asos yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Ямбург Е. А. Что принесет учителю новый профессиональный стандарт педагога? – М.: Просвещение, 2014. – 175 с.
3. Сметанникова Н. Н. Стратегический подход к обучению чтению (междисциплинарные проблемы чтения и грамотности). – М.: Школьная библиотека, 2005. – 509 с.
4. Krathwohl, D. R. (2002). A revision of Bloom's taxonomy: An overview. *Theory Into Practice*, 41(4), 212–218. DOI: 10.1207/s15430421tip4104_2
5. Подласый И. П. Педагогика. – М.: ВЛАДОС, 1996. – 432 с.
6. Avazov A'zam Januzaqovich – Pedagogik modellashtirishning asosiy tamoyillari va metodlari: 2024., -271 b.
7. Torben Spaak. *Legal Power and Legal Competence: Meaning, Normativity, Officials and Theories*. – Cham: Springer, 2023. – 316 p.
8. Анисимов В. В. *Общие основы педагогики*. – М.: Просвещение, 2006. – 574 с.
9. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность*. – М.: Смысл, 2004
10. McClelland D.C. *The Achieving Society*. – Princeton: Van Nostrand, 1961.